

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Yusupov Shakir Xaitbayevich</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XORAZM SHAHARSOZLIK MADANIYATI TARAQQIYOTINING NATIJALARI	11-18
<i>Saparbaev Bunyod Khurrambek ogli</i> THE ART OF NEGOTIATION: KHIVA AND RUSSIA ENGAGEMENT UNDER MUHAMMAD RAHIMKHAN I (1806–1825)	19-28
<i>Tursunova Gavhar Begmurodovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO'CHIRISHDA MAHALLIY AHOLINING QARSHILIK HARAKATLARI (1890–1916-YILLAR)	29-32
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Baratov Otabek Aripovich</i> SHAHARLAR DEMOGRAFIYASI VA KLASSIFIKATSIYASIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	33-40
<i>Сагатовна Зиёдахон Бахтияровна</i> МИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ТУРЦИЕЙ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	41-45
<i>Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna</i> STATISTIK NASHRLAR VA ADABIYOTLARDA TURKISTONNI ELEKTRLASHTIRISH MASALASI (XX ASRNING 20–50-YILLARI)	46-51
<i>Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSI AHOLISINING ETNIK TARKIBI, ETNOSLARNING JOYLASHUVI VA ETNODEMOGRAFIK XUSUSIYATLARI (XIX ASR — XXI ASR BOSHLARI)	52-56

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Achilova Firuza Kurbanovna</i> MINTAQA IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	57-67
<i>Султанова Дина Файзрахмановна</i> НАУЧНАЯ МЕТОДОЛОГИЯ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОГО МЕХАНИЗМА В ЭКОНОМИКЕ ОТРАСЛИ КОНЕВОДСТВА	68-72
<i>Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI HAYOTIY SIKL YONDASHUVI ASOSIDA OMMAVIY BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	73-82
<i>Jabbarov Nurbek Atanazarovich</i> O'ZBEKISTON SANOATIGA ENERGIYA RESURSLARINING TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	83-88

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Zaripova Hulkan Toxir qizi</i> O'ZBEKISTONDAGI TARIXIY-MADANIY JARAYONLARDA MARGINAL QATLAMLARNING O'RNI	89-95
---	-------

<i>Abdullayeva Saodat Nurillo qizi</i> PAZANDACHILIK MADANIYATI VA SALOMATLIK FALSAFASI: VOZEHNING “KONI LAZZAT XONI NE’MAT” ASARIDA TAOMLARNING TIZIMLASHTIRILISHI	96-99
<i>Rajabov Behruz Baxshillayevich</i> TINCHLIK VA HAMKORLIKNING FALSAFIY MOHIYATI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O’RNI.....	100-104
<i>Artigova Adolat Ataboyevna</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	105-109
<i>Umarova Feruza</i> MAFKURAVIY TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA DIN VA DAVLAT MUNOSABATLARI TAHLILI	110-116
<i>Djalalova Nigora Xusanovna</i> IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARNI O’RGANISHDA RAQAMLI ONG KONSEPSIYASI	117-120
<i>Ходжиметов Шахрух Русланбекович</i> ЭМИГРАЦИОННЫЕ И ИММИГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ОБЩЕСТВА	121-124
<i>Islamova Gulzamon Madiyevna</i> JADIDLAR DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING FALSAFIY ASOSLARI.....	125-130
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i> HECI KONSEPSIYASI VA MAHDUMI A’ZAM MEROSI: BAG’RIKENGLIK, AKSIOLOGIK MUSHTARAKLIK, METODOLOGIK TAFOVUT, UMUMIY NUQTALAR VA FARQLAR HAMDA AGRAR TA’LIMDA INSONPARVARLIK G’OYALARINI INTEGRATSIYA QILISH MASALASI.....	131-136
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Baydjanova Iroda Abdullayevna</i> TARJIMADA HAZIL-MUTOYIBA KONSEPTINING SAQLANISHI MUAMMOLARI: “SHUM BOLA” ASARINING O’ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI TARJIMALARI MISOLIDA	137-143
<i>Imomiddinova Nargiza</i> ASL XITOYCHA HARBIY TERMINLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI	144-154
<i>Sobirov Anvar Kuvandikovich</i> JONLI SO’ZLASHUV NUTQIDA SO’Z TARTIBINING LINGVOPOETIK VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	155-159
<i>Азизова Насиба Бахритдиновна</i> ЯЗЫКОВАЯ ЛИЧНОСТЬ КАК КУЛЬТУРНЫЙ КОНЦЕПТ: РЕКОНСТРУКЦИЯ ИДЕЙ АЛИШЕРА НАВАИ И ИХ РЕЛЕВАНТНОСТЬ ДЛЯ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ.....	160-168
<i>Ishankulova Diyora Allovidinovna</i> UMAR XAYYOM SHE’RIYATINING G’OYAVIY-MAZMUNII MOHIYATI VA ULARNING TARJIMADAGI TALQINI	169-174

<i>Olimjon Jalilov Muxidinovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK EPOSARIDA LINGVISTIK MODELLARNING QIYOSIY XUSUSIYATLARI	175-178
<i>Achilova Zuxra Qurbonovna</i> "MALLA SAVDOGAR" DOSTONI VARIANTLARIDA BAXSHIYONA JANG POLOTNOSI VA PEYZAJ ESKIZLARI	179-184
<i>Orazgalieva Ayjamal Marat qizi</i> SYNONYMIC AND PRAGMATIC VERBALISATION OF CHILD/BALA IN ENGLISH AND KARAKALPAK LEXICOGRAPHY	185-192
<i>Babayeva Irada Sabirovna</i> LINGUOCULTUROLOGICAL APPROACH TO THE STUDY OF EMPATHIC COMMUNICATION	193-198
<i>Тоштемурова Фарангиз Шухратовна</i> РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО СОСТАВА СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА И РОЛЬ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ В ЕГО ОБОГАЩЕНИИ	199-202

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Utemuratova Sapargul Shamshetovna</i> EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARDA MAXSUS SUBYEKT TUSHUNCHASI VA MANSABDOR SHAXSLARNING JINOIY JAVOBGARLIGI	203-207
<i>Qilichev Xayrulla Mamatovich</i> FUQAROLARNING O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK BITIMIDA ISHTIROK ETISHINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	208-217
<i>Бурханова Шийрин Жамшитовна</i> ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПРАВОВАЯ ПОЛИТИКА И НОРМОТВОРЧЕСТВО: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ	218-223
<i>Akayeva Marapat Abduhalikovna</i> GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHDA HUQUQIY SIYOSAT: O'ZBEKISTON TAJRIBASINING TAHLILI.....	224-232
<i>Chuboyeva Ozodaxon Quvonbekovna</i> XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDAGI O'RNI	233-240
<i>Хидоятлов Бахтиер Батырович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЗНАНИЙ В ПОЛУЧЕНИИ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ ЭКСПЕРТНОГО ИССЛЕДОВАНИЯ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ	241-250
<i>Dadaboyeva Jumagul Anvarovna, Habibullayev Muhammadrajab Obidjonov</i> JAHON HAMJAMIYATINING GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHGA QARATAYOTGAN E'TIBORI	251-256
<i>Абдулжаппоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> МОБИЛЬНОЕ БАНКОВСКОЕ МОШЕННИЧЕСТВО: УГРОЗЫ, МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНИЯ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ	257-267
<i>Nasridinov Yigitali Borataliyevich</i> XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY ASOSLAR	268-276

<i>Mirzakarimova Dilafruz Doniyorjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT YORDAMIDA KIBERHUJUMLARNI ANIQLASH VA OLDINI OLISH	277-281
<i>Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li</i> O'ZBEKISTON KAPITAL BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA SUKUK INSTRUMENTLARINING INSTITUTSIONAL ROLI	282-289
<i>Нодирбекова Дилдона Абдумалик кизи</i> КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ПРАВА НА ДОСТУП К ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИИ И ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ПРАКТИКИ	290-297
<i>Ahmadjonov Sultonbek Shukurillo o'g'li</i> QALBAKI PUL, AKSIZ MARKASI YOKI QIMMATLI QOG'OZLAR YASASH VA ULARNI O'TKAZISH JINOYATINING AYRIM JINOIY-HUQUQIY JIHATLARI	298-307
<i>Отлубаева Айгуль Бахрамовна</i> КЛАССИФИКАЦИЯ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СРАВНИТЕЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ С ОПЫТОМ РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН	308-316
<i>Mukimbayev Otabek Sattarovich</i> GUVOHNING MAQOMINI HUQUQIY HIMOYALASHDA KONSEPTUAL YONDASHUVLAR.....	317-324
<i>Yakubov Mirzaxid Turabayevich</i> NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlar ijrosini ta'minlashning Xorijiy modellari va milliy amaliyot uchun xulosalar	325-333
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> RAQAMLI TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TALABLARI.....	334-338
<i>Raxmatullaev Dilmurod Raxmatullayevich</i> PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA BO'LAJAK MUTAXASSISLARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	339-348
<i>Yusupova Kamola Nuriddinovna</i> NEYROPEDAGOGIKA TA'LIM TIZIMINING YANGI ILMIY TARMOG'I SIFATIDA.....	349-353
<i>Umurzoqov Baxtiyor Boxodirovich</i> ZAMONAVIY SHAROITDA HARBIY KADRLAR BOSHQARUVI TIZIMI SAMARADORLIGINING ILMIY-AMALIY ASOSLARI.....	354-358
<i>Qobilova Nilufar Xudoyshukurovna, Xujamova Dilobar Berdiyrovna</i> OLIY PEDAGOGIK TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SHAXSIY VA KASBIY KONGRUENTLIGINI LOYIHAVIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI.....	359-366
<i>Xaitbayeva Durdona Zokirjon qizi</i> SUN'IIY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV RAQAMLI TA'LIM TIZIMINI LOYIHALASHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI	367-371

<i>Исмаилов Шухрат Абдусоат угли, Инназаров Маджид Амонович</i> МЕХАНИЗМЫ ВНЕДРЕНИЯ МОДЕЛИ ФИНАНСИРОВАНИЯ, ОСНОВАННОГО НА РЕЗУЛЬТАТАХ (PERFORMANCE-BASED FUNDING), В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ РУКОВОДЯЩИХ КАДРОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ	372-378
<i>Rakhmatova Madina Abdumumin kizi</i> IMPLEMENTATION OF PROGRAMS FOR AUTOMATIC DETECTION AND CORRECTION OF GRAMMATICAL ERRORS IN ENGLISH WRITING.....	379-384
<i>To'rayev Azamat Maqsudovich</i> TALABALARNING ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BO'SH VAQTNI TASHKIL ETISHNING RAQAMLI METODIKASI	385-390
<i>Mahmudova Farangiz Qurbonboy qizi</i> STUDENTS' ATTITUDES TOWARD AI USE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: HELP OR HINDRANCE?	391-399
<i>Burxonova Muxlisa Murtoz qizi</i> O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDAGI BADIY MATNLARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	400-404

Received: 16 February 2026

Accepted: 01 March 2026

Published: 15 March 2026

Article / Original Paper

THE WORK “AL-KASHSHAF” BY MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARI AND ITS HISTORICAL SIGNIFICANCE

Artiqova Adolat Ataboyevna

1st-year Master's student in History,
Navoiy Innovation University

Abstract. This article discusses the work “Al-Kashshaf”, which is recognized as one of the most influential and famous interpretations of the Holy Quran, and its historical significance. It also analyzes the history of the work's creation, its impact on the social life of that period, and its importance in the development of the Islamic religion from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: Holy Quran, nahv (grammar), sahv, eloquence (balaghat), tafsir, kalam, Islamic theology, ayah, hadith, Mu'tazilite, narration, al-Azhar.

MAHMUD AZ-ZAMAKHSHARIYNING “AL-KASHSHAF” ASARI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

Artiqova Adolat Ataboyevna

Navoiy innovatsiyalar universiteti
Tarix yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qur'oni Karim tafsirlarining eng nufuzli va mashhur izohlaridan biri deb tan olingan “Al-Kashshof” asari va uning tarixiy ahamiyati xususida so'z boradi. Shuningdek, asarning yaratilish tarixi, o'sha davrdagi ijtimoiy hayotga ta'siri va islom dini taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, nahv, sahv, balog'at, tafsir, kalam, kalam ilmi, islom dini, oyat, hadis, mu'taziliy, rivoyat, al-Azhar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I3Y2026N16>

XI–XII asrlar islom tafakkurining yirik namoyandalaridan biri Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamakhshariy bo'lib, uning mashhur “Al-Kashshof” - “Al-Kashshaf ‘an haqā’iq at-tanzīl wa ‘uyūn al-aqāwīl fī wujūh at-ta’wīl” asari o'z davrida va bugungi kunda ham islom falsafasi va kalam ilmini o'rganishda asosiy muhim manbalardan hisoblanadi.

Maqolada muallifning hayot yo'li, ilmiy shakllanishi, Qur'oni Karimni talqin etishda qo'llagan metodologiyasi, asarning yozilishiga ta'sir etgan ilmiy, diniy va ijtimoiy omillar, shuningdek “Al-Kashshof” tafsirining islom ilmiy merosidagi o'rni chuqur yoritiladi. Tadqiqot davomida klassik islom manbalari bilan bir qatorda zamonaviy sharqshunoslik va akademik tadqiqotlarga ham tayanildi.

Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamakhshariy (hijriy 467–538 / milodiy 1074/1075–1143/1144-yillarda) Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan buyuk mufasssir, arab tili nahvi, balog'ati va Qur'on tafsiri sohalarida chuqur iz qoldirgan allomadir [1,100]. U Xorazm vohasidagi Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan bo'lib, dastlabki ta'limni shu hududda olgan.

Keyinchalik ilm talabida Buxoro, Samarqand, so'ng Bag'dod va Makka kabi o'sha davrning yetakchi ilmiy markazlarida tahsilini davom ettirgan [2,212]. Az-Zamaxshariy hayoti davomida arab tili grammatikasi (nahv), balog'at, lug'atshunoslik, kalom va tafsir ilmlarini chuqur egallab, ushbu sohalarda yetuk mutaxassis sifatida tanilgan. Ayniqsa, uning Qur'oni Karim tilini lingvistik va mantiqiy jihatdan sharhlashdagi yondashuvi islom tafsirchiligida yangi bosqichni boshlab berdi. Az-Zamaxshariyning eng mashhur asari - "Al-Kashshof" bo'lib, uning to'liq nomi quyidagicha: al-Kashshaf 'an haqā'iq al-ghawāmiḍ at-tanzīl wa 'uyūn al-aqāwīl fī wujūh at-ta'wīl. Asar nomining o'ziyoq bu kitobning maqsadini ochib beradi, ya'ni, bunda asosiy e'tibor Qur'oni Karim oyatlaridagi murakkab ma'nolar, yashirin semantik qatlamlar va balog'iy nozikliklarni ochib berishga qaratilgandir. Manbalarga ko'ra, "Al-Kashshof" asari hijriy 526–528 (milodiy 1132–1134)-yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, unda Qur'on oyatlari nahv, sarf, balog'at, mantiq va semantika nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shu sababli bu asar oddiy tafsir emas, balki Qur'on tilshunosligi va balog'ati bo'yicha fundamental manba sifatida baholanadi.

Az-Zamaxshariy islom tafakkuridagi mu'taziliy maktab vakili bo'lib, bu holat uning tafsiriy qarashlarida yaqqol aks etadi [3,270]. Mu'taziliy ta'limotning asosiy tamoyillari - tavhid, adolat, inson irodasi va aqlning ustuvorligi "Al-Kashshof" tafsirida muhim o'rin egallaydi. Muallif oyatlarni sharhlashda nafaqat rivoyatlarga, balki aql, mantiq va til qoidalariga tayangan holda izoh beradi. Bu esa Qur'onni yuzaki emas, balki chuqur semantik va mantiqiy tahlil qilish zaruratidan kelib chiqqan.

XI-XII asrlarga kelib, Qur'on tafsirida rivoyat va dirayat uslublari o'rtasida muvozanat zarurati yuzaga kelgan edi. Az-Zamaxshariy aynan shu ehtiyojni chuqur his etib, Qur'on oyatlaridagi i'joz (uslubiy mo'jizalik)ni arab tilining ichki qonuniyatlari orqali ochib berishni maqsad qilgan. U har bir oyatdagi sintaktik tuzilma, so'zlarning joylashuvi (taqdim-ta'xir), hazf, isti'ora va kinoya kabi balog'iy vositalarni puxta tahlil qilgan. Shu jihatdan "Al-Kashshof" tafsiri keyingi mufasssirlar uchun metodologik namuna bo'lib xizmat qilgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, az-Zamaxshariy Qur'on darslari jarayonida shogirdlarining oyatlar ma'nosini chuqurroq tushunishga bo'lgan ehtiyojini sezgan. Aynan shu ehtiyoj uni tizimli va mukammal tafsir yozishga undagan. "Al-Kashshof" avvalo ta'limiy ehtiyoj mahsuli sifatida yuzaga kelib, keyinchalik keng ilmiy doiralarda e'tirof etilgan. Az-Zamaxshariy o'z tafsirida Tabariy, al-Wahidi, Abd al-Qohir al-Jurjoni kabi allomalarning ilmiy merosiga tayangan holda, ularning yondashuvini yanada mukammallashtirgan. Ayniqsa, Jurjoniyning balog'at haqidagi nazariyalari "Al-Kashshof" asarining uslubiy poydevorini tashkil etgan. Keyinchalik asar islom olamida keng tarqalib, Misr, Shom, Hijoz va Movarounnahr madrasalarida asosiy tafsir manbalaridan biri sifatida o'rganilgan. Xususan, Qohiradagi al-Azhar ilmiy muassasasida "Al-Kashshof"ga sharhlar yozilgan va darslik sifatida foydalanilgan. Sunniy olimlar muallifning aqidaviy qarashlarini tanqid qilgan bo'lsalar-da, asarning tilshunoslik va balog'atdagi beqiyos qiymatini to'liq tan olganlar. Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" asari turli davrlarda yirik olimlar tomonidan o'rganilgan, muxtasar qilingan, sharhlar bitilgan. Dunyo fondlarida asar muxtasar sharhlarining juda nodir qo'lyozmalari saqlanadi. "Al-Kashshof" asari tafsirini monografik o'rganishda unga yozilgan sharhlarning ahamiyati juda katta hisoblanadi.

Imom Ahmad ibn Munir Molikiy Iskandariy (vaf. 683/1284) "Al-Kashshof" asariga bag'ishlab o'zining "Intisob" – "Tiklanish" nomli asarini yozgan. Muallif asardagi mo'tazila aqidasi taalluqli o'rinlarga tanqidiy munosabatda yondashadi. Asarning tili, balog'ati,

fasohatiga juda yuqori baho beradi [4,272]. Alamuddin Iroqiyning (vaf. 704/ 1305) “Insob” – “Tiklash” nomli sharhi ham ushbu asar tafsiriga bag‘ishlanib yaratilgan asarlar sirasiga kiradi. Mazkur sharhda Alamuddin Iroqiy Mahmud Zamaxshariyning “Al-Kashshof” va Imom Ahmad ibn Munir Molikiy Iskandariyning “Intisob” asarlarini qiyosiy tahlil qiladi va mazkur ikki manbaga nisbatan o‘z fikrlarini mustaqil tarzda bayon qiladi [5,78]. Abu Ali Umar Sukkuniy Mag‘ribiyning (vaf. 717/ 1317) “Tamyiz” – “Ajratish” nomli sharhi ham ushbu muqaddas manbaga bag‘ishlab yaratilgan bo‘lib, muallif “Al-Kashshof” asarining ilmiy, filologik jihatlariga ijobiy baho beradi, lekin undagi mu‘tazila aqidasi taalluqli bo‘lgan tomonlarini tanqid qiladi. Sharhning nodir nusxasi Qohiradagi Dorul-kutubi-l-misriyya kutubxonasida saqlanadi [5]. Valiyyuddin Ahmad ibn Zaynuddin Iroqiy (vaf. 826/1423) tomonidan “Insof ala-l-Kashshof” nomli raddiya sharhi bitilgan. Bunda muallif Ibn Munirning “Ilmu-d-din”, Abu Hayyonning “Tafsiru-l-bahr”, Ibn Hishomning “Mug‘niy” asarlariga tayanib “Al-Kashshof”dagi hadislarini taxrij qilgan. Valiyyuddin Iroqiy asarni 826/1423-yilda yozib tugatgan. Asarning bir nusxasi “Daru-l-kutubil-misriyya” qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Burhoniddin Haydar Hiraviy (vaf. 830/ 1427) ustoz shayx Sa’dning “Al-Kashshof”ga yozgan hoshiyasiga mukammal sharh yozib, unda ustozining “Al-Kashshof” asariga bo‘lgan salbiy fikrlariga raddiya yozganligi haqida manbalarda ma’lumotlar uchraydi. Ushbu asar hozirda “Daru-l-kutubil-misriyya” qo‘lyozma fondida saqlanmoqda. Ahmad ibn Ismoil Kuroni (vaf. 893/ 1488) “G‘oyatu-l-amoniyy fi tafsiri-l-kalomi-r-rabboniy” – “Allohning kalomini tafsir qilishdagi eng so‘nggi g‘oya” asarini yozgan. Olim hoshiyada Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” va Qozi Baydoviyning “Tafsir” asarlariga tanqidiy munosabat bildirgan. Asar “Daru-l-kutubil-misriyya” qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda. Abu Sa’d Imodiy (vaf. 982/1574) ning “Ma‘aqidu-t-taraf fi avvali tafsir surati-l-Fath mina-l-Kashshof” – “Al-Kashshof”dagi Fath surasi tafsiriga izoh” nomli hoshiyasi ham mavjud bo‘lib, uning tarkibida Imom Hofiz Shahobiddin Abu-l-Fazl ibn Ali ibn Hajarning “Kofiyu-sh-shofiy fi taxriji-l-ahadisi-l-Kashshof” – “Al-Kashshof”dagi hadislarini taxriji bo‘yicha yetarli” nomli asari ham keltirilganligini uchratish mumkin.

Muhyiddin Afandi tomonidan “Tanzilu-l-oyot ala shavahid mina-l-abyat” – “Oyat ma’nosini quvvatlaydigan baytlar” nomli asar yaratilgan bo‘lib, unda Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsiri tarkibiga kiritilgan baytlari sharhlangan va ularning mualliflari ko‘rsatib o‘tilgan. Xidr ibn Atoullohning “Is‘af bi sharhi abyati-l-Qoziy va-l-Kashshof” – “Qoziy” va “Kashshof” baytlarini sharhlashga yordam” nomli asari ham mavjud. Asar ikki jildidan iborat bo‘lib, 994/ 1586 yili yozilganligi qayd etiladi. Shayx Muhammad ibn Ali Ansoriy (vaf. 662/ 1264) tomonidan bu asarga sharh bitilgan bo‘lib, az-Zamaxshariyning “Al-Kashshof” asaridagi mu‘tazila aqidasi doir fikrlarni chiqarib tashlab, ahli sunna val jamoa mazhabiga mos keladigan jihatlarini qoldirganligini ko‘rish mumkin. Nosiriddin Qoziy Baydoviyning (vaf. 692/ 1293) “Anvoru-t-tanzil” - “Qur‘on nurlari” nomli asarida “Al-Kashshof” asariga raddiyalar bildirgan va mu‘tazila aqidasi doir jihatlariga tanqidiy yondashilgan. Shayx Taqiyyiddin Sabbokiy (vaf. 765/ 1364) “Sababu-l-inkifof an iqroi-l-Kashshof” – “Kashshof”ni o‘qishdan yuz o‘girish sabablari” nomli muxtasar asarini yozgan. Abu-s-Saodat Muborak ibn Muhammad ibn Asir Hizriyning “Insof fi-l-jam‘i bayna-s-Sa‘labiy va-l-Kashshof” – “Kashshof” va Sa‘labiy tafsirini insof bilan jamlash” nomli asari ham mavjud. Badriddin Muhammad Muqriy Halabiy (vaf. 705/1306) “Muxtasaru-r-roshif min zulali-l-“Kashshof” mina-t-tafosir” – “Kashshof”ning zilol suvlaridan ichish” nomli asarida Abu-l-Abbos Ahmad Mahdiy, Abu Lays Samarqandiy va Sa‘labiy fikrlarini “Kashshof” asari bilan qiyosiy tahlil qilgan. Olimlar ushbu asarni “Al-

Kashshof"ning muhim muxtasarlaridan biri sifatida baholaganlar. Imod Kanadiyning (vaf. 720/1320) "Kafil bi ma'anii-t-tanzil" – "Qur'on ma'nolarining kafolati" nomli 23 jildidan iborat asari mavjud bo'lib, bunda har bir oyatning tafsiridan so'ng Mahmud az-Zamaxshariyning bu haqidagi fikrini keltirib o'tadi.

Imod Kanadiy nahv ilmi borasida mashhur olimlardan bo'lganligi sababli "Al-Kashshof"ning balog'at, grammatik jihatlariga alohida e'tibor beradi va allomaning fikrlarini aynan keltiradi. Nizomiddin Qumiy Nisoburiy (vaf.728/1328) "Al-Kashshof"ga bag'ishlangan muxtasar asarmuallifi bo'lib, olim o'z muxtasarida Imom Roziyning "Tafsiri kabir" va Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" tafsirini qiyosiy tahlil qiladi. Shamsuddin Abu-s-Sano Shofe'iy (vaf. 749/ 1348) Imom Roziyning "Mafotihu-l-g'ayb" – "G'ayb kalitlari" asari va az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" tafsirini qiyosiy o'rgangan olimlardan biridir. Abu-s-Sa'id Ummadiyning (vaf. 982/1574) "Irshodu-l-aqli-s-salim ila mazaya-l-kitabi-l-karim" – "Sog'lom aqlni Qur'on hidoyatidan bahramand qilish" nomli muxtasar asari borligi haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar beriladi. Mazkur asar "Tafsiri Abu-s-Sa'id" nomi bilan mashhur bo'lib, Imom Yahyo ibn Hamza Alaviy Yamaniy (vaf. 749/ 1348) qalamiga mansubdir. "Olim "Tiroz" – "Namuna" nomli kitobini "Al-Kashshof" asari ta'sirida yozgan. Asar muqaddimasida olim ko'plab tafsirlarni o'rganganligi ammo ularning birortasida ham Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" tafsiridagi kabi bayon va ma'oniylarini qamrab olgan, Qur'oni karim lafzi hamda ma'nosidagi mo'jizaviy ma'nolarini yoritib beradigan mukammal tafsir ko'rmaganligini yozadi va shogirdlarining iltimosiga ko'ra yuqoridagi tafsirning balog'ati va fasohatiga bag'ishlangan ushbu asarini yozganligini ta'kidlaydi.

Mahmud az-Zamaxshariyning "Al-Kashshof" tafsiri bilan bog'liq manbalarni o'rganish asarga o'zi yaratilgan davrdan hozirga qadar saksondan ortiq sharh, hoshiya, muxtasarlar yozilganligini ko'rsatmoqda. Ular sirasiga Qutbuddin Sheroziyning (vaf. 710/ 1311) "Kashshof" asariga ikki jildli hoshiyasi, Qutbuddin Shaqqorning (vaf. 698/ 1299) "Taqrību-t-tafosir" – "Tafsirlarning qiyosi" nomli sharhi, Ali Tusiylarning (vaf. 561/ 1166) "Javomi'u-l-javomi" – "Jamlarning jami" sharhi, Fozil Yusuf ibn Husayn Hilvoniylarning (vaf. 854/ 1450) hoshiyasi, Tojiddin Ahmad ibn Maktumning "Durru-l-laqt mina-l-bahri-l-muhit" – "Ummondan topilgan dur" deb nomlagan Abu Hayonning "Kashshof"ga yozilgan muxtasari, Sharofuddin Tibiy (vaf. 743/ 1343) "Kashshof" asariga 6 jildlik "Futuhu-l-g'ayb fi kashf an qanna'i-r-rayb" – "Shak-shubhalarni ketkazish, g'aybni ochish" nomli hoshiyasi, Shayxu-l-Islom Bahro Yahyo Haraviy (vaf. 906/ 1501) "Kashshof"ning Fotiha surasidan Baqara surasining o'rtasigacha bo'lgan qismi sharhi kabi asarlar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud az-Zamaxshariyning "Kashshof an-haqoiqi-t-tanzil va uyuni-l-aqovil fi vujuhi-t-ta'vil" ("Qur'ondagi haqiqiy ma'nolarni ochib beruvchi va uni sharhlash orqali rivoyatlarni tushuntiruvchi") nomli tafsiri mufasssirlar orasida nufuzli ilmiy manba sifatida tan olingan. Asarga yozilgan sharhlar, hoshiya va ta'liqotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, musulmon olimlarining juda ko'plari unga murojaat qilgan. Ushbu asarning qo'lyozmalari zamonimizgacha yetib kelgan bo'lib, unda Mahmud Zamaxshariyning tafsirining filologiya sohasidagi ahamiyati, xususan, balog'at va fasohat sohasidagi o'rni alohida yuqori baholangan.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Maxmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar (Sharhlar muallifi va tarjimasi U.Uvatov) – T.: Kamalak,1992. – B.43.

2. Xoji Xalifa. Kashf az Zunun. Dor Saodat. – J.2. – B.147.
3. Doktor Mustafo as As-Soviy al-Juvayniy. Manhaju az-Zamaxshariy fi tafsir al-Qur'an va bayani i'jazihi. – Misr: Dor al-Maorif, 1984. - B.272.
4. Sulaymonova N. Mahmud Zamaxshariyning "Kashshof" asari qo'lyozma nusxalari haqida. – Oltin bitiglar. / Golden scripts. - 2020/4. – B.78.
5. Zamaxshariy, Mahmud. Al-Kashshof. (Tarjimon va so'zboshi muallifi: U. Uvatov). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).